TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.10/2025.27.12.T.01.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

TURG‘UNALIYEV ELBEK TO‘XTANAZAR O‘G‘LI

TEMIR YO‘L TRANSPORTINING METALLOPOLIMER TIZIMLARIDAGI TRIBOMEXANIK JARAYONLAR QONUNIYATLARINI O‘RGANISH ASOSIDA SIKLIK YUKLANISHGA CHIDAMLI GETEROKOMPOZIT MATERIALLAR TARKIBLARINI ISHLAB CHIQISHNING ILMIY ASOSLARI

05.02.01- Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik. Metallarga termik va bosim ostida ishlov berish. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi.

TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent-2026

UO‘K: 620.22-022.532:539.388.1:621.891:629.4

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Content of the dissertation abstract of doctor of science (DSc)

Turg‘unaliyev Elbek To‘xtanazar o‘g‘li
Temir yo‘l transportining metallopolimer tizimlaridagi tribomexanik jarayonlar qonuniyatlarini o‘rganish asosida siklik yuklanishga chidamli geterokompozit materiallar tarkiblarini ishlab chiqishning ilmiy asoslari…..... 3

Тургуналиев Элбек Тухтаназар угли
Научные основы разработки гетерокомпозитных материалов, устойчивых к циклическим нагрузкам, на основе изучения закономерностей трибомеханических процессов в металлополимерных системах железнодорожного транспорта……..... 27

Turgunaliev Elbek Tukhtanazar ugli
Scientific principles for the development of heterocomposite material compositions resistant to cyclic loading, based on the study of tribomechanical processes in metal-polymer systems of railway transport…. 55

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works…….....…….. 59

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.10/2025.27.12.T.01.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

TURG‘UNALIYEV ELBEK TO‘XTANAZAR O‘G‘LI

TEMIR YO‘L TRANSPORTINING METALLOPOLIMER TIZIMLARIDAGI TRIBOMEXANIK JARAYONLAR QONUNIYATLARINI O‘RGANISH ASOSIDA SIKLIK YUKLANISHGA CHIDAMLI GETEROKOMPOZIT MATERIALLAR TARKIBLARINI ISHLAB CHIQISHNING ILMIY ASOSLARI

05.02.01- Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik. Metallarga termik va bosim ostida ishlov berish. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi.

TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent-2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.3.DSc/T3923 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universiteti ta’lim muassasasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy Kengash veb-sahifasida (http://tstu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Ziyamuxamedova Umida Alijonovna** texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Abduraxmonov Umarbek** fizika-matematika fanlari doktori
	Riskulov Alimjon Axmadjonovich texnika fanlari doktori, professor
	Turaxodjayev Nodir Djaxongirovich texnika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Jizzax politexnika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi DSc.10/2025.27.12.T.01.04 raqamli ilmiy Kengashning 2026-yil 24-noyabr soat 10^{00} dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100167, Toshkent, Temir yo‘lchi ko‘chasi 1-uy. Tel.: (99871) 299-00-01; faks: (99871) 293-57-54; e-mail: rektorat@tstu.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (407 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100167, Toshkent, Temiryo‘lchi ko‘chasi 1-uy. Tel.: (99871)299-05-66)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 12 - noyabr kun tarqatildi.
(2026-yil «12»09 dagi 3-raqamli reyestr bayonnomasi).

A.V. Umarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

E.U. Teshabayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

N.Q.Tursunov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor.

Kirish (Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda temir yo‘l infratuzilmasining barqaror ishlashini ta’minlash, poyezdlar harakat xavfsizligini oshirish va rels yo‘li elementlarining xizmat muddatini uzaytirish rels mahkamlash tizimlarida yuz beradigan tribomexanik jarayonlarni barqarorlovchi organomineral qo’mpozitsiyalar asosidagi prokladkalar ishlatiladi. Shu bilan birga po‘lat rels, metall prujinali mahkamlagich, polimer prokladka, prujinali va yon izolyatorlar hamda temir-beton shpaldan tashkil topgan rels mahkamlash uzeli murakkab metallopolimer tizimlarda yuklarning uzatilishi kontakt bosimining notekis taqsimlanishi, elastik-viskoelastik deformatsiya, mikrosiljish, ishqalanish, friksion qizish, sirt qatlamlarining charchashi va yeyilishini, takroriy dinamik, zarbiy va vibratsion yuklar ta’sirida polimer elementlarda qoldiq deformatsiya, sirpanish, sirt yemirilishi va mikronuqsonlarni, adgezion, abraziv, charchash va fretting-yeyilish mexanizmlari rivojlanib, elementlarning elastikligi, geometrik barqarorligi kontakt bosimi, ishqalanish koeffitsienti, deformatsion gisterezis, friksion qizish, yeyilish intensivligi va siklik shikastlanish o‘rtasidagi qonuniy bog‘lanishlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Dunyoda temir yo‘l konstruksiyalari uchun yuqori siklik chidamlilikka ega polimer, elastomer, organomineral va tolali kompozit materiallarning yangi avlodini yaratish, rels mahkamlash tizimi elementlarini tanlashda ularning statik mustahkamligi bilan bir qatorda, uzoq muddatli siklik yuklanishdagi deformatsion-relaksatsion holati, tribologik xossalari, kontakt yuzalarining shikastlanish, polimer matritsa, mineral to‘ldiruvchilar, tolali mustahkamlovchilar, elastiklashtiruvchilar va funksional modifikatorlardan tashkil topgan geterokompozit materiallardan yaratish, ularni fazalararo adgeziya, komponentlarning dispersligi va taqsimlanishi, matritsaning strukturaviy holati, g‘ovaklik hamda ichki kuchlanishlar qattiqlik, elastik tiklanish, yeyilishga va charchashga chidamlilikni, tarkib, struktura, tribomexanik xossalar va siklik chidamlilik o‘rtasidagi qonuniy bog‘lanishlarni aniqlash hamda ularni real metallopolimer kontakt sharoitlariga mos ravishda boshqarish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda temir yo‘l transporti infratuzilmasini modernizatsiya qilish, sanoat mahsulotlarini mahalliylashtirish, mavjud xomashyo resurslaridan samarali foydalanish va yuqori qo‘shilgan qiymatli raqobatbardosh materiallar ishlab chiqarishni kengaytirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «.....iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish....sanoat tarmoqlarida yo‘qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish..... havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 20 foizga qisqartirish»[1] vazifalari belgilab berilgan. Bu borada, mahalliy mineral va polimer xomashyolar asosida siklik yuklanishga, tribomexanik ta’sirlarga va iqlimiy eskirishga chidamli geterokompozit materiallar tarkibini yaratish, ularni olish texnologiyasini ishlab chiqish hamda metallopolimer

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF 60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni

tizimlarda xizmatga yaroqliligini ilmiy asoslash bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son «Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari va 2024-yil 4-martdagi PQ-109-son «O'zbekiston - 2030» strategiyasida belgilangan asosiy yo'nalishlar bo'yicha islohotlarni amalga oshirishning 2024-yildagi ustuvor chora-tadbirlari to'g'risi to'g'risida»gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VI. «yangi materiallar va ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalari, shu jumladan, nanotexnologiyalar, additiv ishlab chiqarish, robototexnika va avtomatlashtirilgan tizimlar» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi[2]. Temir yo'l transportining metallopolimer tizimlaridagi tribomexanik jarayonlarni o'rganish hamda siklik yuklanishga chidamli geterokompozit materiallar yaratish sohasida dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida, jumladan, University of Illinois Urbana-Champaign qoshidagi Rail Transportation and Engineering Center - RailTEC (AQSH), University of Birmingham qoshidagi Birmingham Centre for Railway Research and Education - BCRRE, University of Huddersfield (Buyuk Britaniya), Chang'an University (Xitoy), Korea Railroad Research Institute - KRRI (Janubiy Koreya), Railway Technical Research Institute - RTRI (Yaponiya), Lozanna federal texnologiya instituti - (Shveysariya), University of Southern Queensland va University of Wollongong (Avstraliya), Suleyman Demirel University (Turkiya), Toshkent davlat transport universiteti (O'zbekiston) olib borilmoqda.

Jahonda metall elementlar jumladan, rels va mahkamlash elementlari bilan polimer material orasidagi kontakt zonasi alohida tribotexnik tizim sifatida qarashning ilmiy tehnologik asosini yaratish borosida olib borilgan tadqiqjtlar natijasida qator, jumladan,quyidagi ilmiy natijalar olingan: metall yuza bilan polimer element o'rtasida yuzaga keladigan ishqalanish kuchi, kontakt bosimi, mikroharakat - fretting va issiqlik ajralishi jarayonlari chuqur o'rganil (University of Illinois Urbana-Champaign qoshidagi Rail Transportation and Engineering Center - RailTEC, AQSH), metallopolimer juftlikning tribomexanik xatti-harakati faqat materialning mustahkamligi bilan emas, balki yuza qattiqligi,

[2] Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi: https://www.sciencedirect.com; https://www.researchgate.net;https://www.nasa.gov/news-release/nasa-tests-game-changing-composite, https://journals.sagepub.com.;https://4spepublications.pericles-prod.literatumonline.com.; www.scholar.google.com; https://www.mdpi.com., https://link.springer.com., https://onlinelibrary.wiley.com., https://cyberleninka.ru., https://www.elibrary.ru., https://uzrailway.uz., https://www.gpntb.ru. https://www.mdpi.com., http://ogi.az va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan

mikrostrukturaning bir jinsliligi va kontakt zonasidagi kuchlanishlarning taqsimlanishi bilan ham belgilanishi ko‘rsatilgan (University of Birmingham qoshidagi Birmingham Centre for Railway Research and Education - BCRRE, University of Huddersfield, Buyuk Britaniya), siklik dinamik yuklanish sharoitida polimer elementlarning yuza qatlamida charchash yoriqlarining shakllanishi, adgezion va abraziv yeyilish mexanizmlarining birgalikda namoyon bo‘lishi hamda ishqalanish koeffitsiyentining ekspluatatsiya davomida o‘zgarish qonuniyatlari yaratilgan (Chang‘an University, Xitoy; Korea Railroad Research Institute - KRRI, Janubiy Koreya; Railway Technical Research Institute, Yaponiya), geterokompozit materiallar bo‘yicha xorijiy izlanishlarda turli tabiatga ega komponentlar - polimer matritsa, mineral va organik to‘ldiruvchilar, tolali mustahkamlovchilar, elastomer modifikatorlar hamda nanoo‘lchamli qo‘shimchalar o‘rtasidagi fazalararo bog‘lanishlarning struktura shakllanishiga ta’siri o‘rganilgan Lozanna federal texnologiya instituti, Shveysariya; University of Southern Queensland va University of Wollongong, Avstraliya; Suleyman Demirel University, Turkiya; Toshkent davlat transport universiteti, O‘zbekiston).

Dunyoda mashinasozlik tizimlaridagi tribomexanik jarayonlar qonuniyatlarini o‘rganish asosida siklik yuklanishga chidamli geterokompozit materiallar tarkiblarini ishlab chiqishning ilmiy asoslarini o‘rganish bo‘yicha qator, jumladan, quyidagi ustivor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: jinali va yon izolyatorlar bo‘yicha ishlarda ushbu elementlarning metall qismlar bilan doimiy friksion aloqada bo‘lishi; uzoq muddatli siklik yuklanish ostida geometrik shaklini saqlashi hamda dielektrik xossalarining barqarorligini ta’minlash, metallopolimer kontakt zonasida takroriy ishqalanish natijasida yuzaga keladigan mikroyeyilish; izolyatsion qatlamning yupqalashuvi va buning oqibatida elektr izolyatsiya xususiyatining pasayishi; tribomexanik charchash jarayoni sifatida modellashtirish; dielektrik mustahkamlik bilan bir qatorda friksion barqarorlik va zarbiy yuklanishga chidamlilikni ta’minlovchi geterokompozit tarkiblarni yaratish; rels mahkamlash elementlari va metallopolimer tizimlarning mexanik, dinamik hamda tribomexanik xususiyatlari asosan nazariy modellar va standart, iqlim, xomashyo bazasi, real ekspluatatsion yuklanish rejimlari, shuningdek, va tribologik modifikatorlardan tashkil topgan geterokompozitlarning siklik buzilish qonuniyatlari yaratish va joriy qilish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Temir yo‘l transportining metallopolimer tizimlarida yuz beradigan tribomexanik jarayonlarni o‘rganish, rels mahkamlash elementlarining ekspluatatsion ishonchliligini oshirish hamda siklik yuklanishga chidamli polimer kompozit materiallarni yaratish bo‘yicha S. Kaewunruen, A.M. Remennikov, D.J. Thompson, R. Lewis, U. Olofsson, M. Steenbergen, D. Oregui, T. Dahlberg, H. Sato va boshqa olimlar katta hissa qo‘shgan. Polimer va geterokompozit materiallarning strukturaviy shakllanishi, fazalararo o‘zaro ta’siri, fizik-mexanik hamda tribotexnik xossalarini boshqarish bo‘yicha N.S. Yenikolopov, G.N. Bartenev, A.A. Berlin, V.A. Beliy, Y.S. Lipatov, A.I. Sviridyonok, M.A. Asqarov, A.T. Djalilov, S.S. Negmatov, S.Sh. Rashidova, professorlar A.B. Djumabayev, N. Ashurov, A.S. Ibadullayev, A.V. Umarov,

Z.A. Tadjixodjayev, A.A. Risqulov, U. Abduraxmanov, N.Q. Tursunov, A.S. Xasanov, E.U. Teshabayeva, U.A. Ziyamuxamedova va boshqa olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Ular tomonidan metallopolimer tribotizimlarda ishqalanish, adgezion, abraziv va charchash yeyilishi mexanizmlari, polimer materiallarning elastik-viskoelastik deformatsiyasi, relaksatsiyasi hamda takroriy yuklanish ta'sirida strukturasining o'zgarishi bo'yicha nazariy va amaliy asoslar ishlab chiqilgan, shuningdek, polimer matritsa, mineral va organik to'ldiruvchilar, tolali mustahkamlovchilar, elastomer modifikatorlar hamda tribologik qo'shimchalardan tashkil topgan geterokompozitlarda fazalararo adgeziya, disperslik, kristallanish, ichki kuchlanish va g'ovaklikning material xossalariga ta'siri aniqlangan, ushbu tadqiqotlar asosida mashinasozlik va transport vositalari uchun yuqori mustahkamlik, yeyilishga chidamlilik, elastik tiklanish, termik barqarorlik va dielektrik xossalarga ega kompozit materiallar tarkiblari hamda ularni olishning texnologik usullari yaratilgan, rels osti prokladkalari va izolyatorlar bo'yicha olib borilgan izlanishlarda ularning dinamik qattiqligi, deformatsion gisterezisi, tebranishlarni so'ndirish qobiliyati, kontakt bosimini taqsimlashi, qoldiq deformatsiyasi va charchash uzoq muddatliligini baholash usullari takomillashtirilgan.

Shu bilan birga, mavjud ishlarda rels mahkamlash tizimidagi rels-prokladka-shpal, prujinali mahkamlagich-izolyator va rels-yon izolyator metallopolimer kontaktlarida sodir bo'ladigan tribomexanik jarayonlar ko'pincha alohida ko'rsatkichlar bo'yicha o'rganilgan. Siklik yuk amplitudasi va chastotasi, kontakt bosimi, mikrosiljish, ishqalanish koeffitsiyenti, friksion qizish, qoldiq deformatsiya hamda yeyilish intensivligi o'rtasidagi qonuniy bog'lanishlarni, mahalliy mineral va polimer xomashyolar, tolali mustahkamlovchilar va tribologik modifikatorlar asosida yaratilgan geterokompozitlarning keskin harorat almashinuvi, namlik va chang-abraziv muhiti sharoitidagi siklik buzilish mexanizmlarini, metallopolimer tizimlardagi tribomexanik jarayonlar qonuniyatlarini aniqlash, geterokompozitlarning tarkibi, strukturasi, fizik-mexanik va tribologik xossalari hamda siklik chidamliligi o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy asoslash va rels mahkamlash elementlari uchun optimal material tarkiblarini ishlab chiqish borasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Ilmiy-tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Uzbek-India 2021-85-«Nano-termoplast (polipropilen), termoreaktiv (epoksid kampaund), nano o'lchamdagi to'ldiruvchilar bilan boyitilgan polimer kompozit materiallar va qoplamalarning mexanik hamda tribotexnik xossalarini takomillashtirish» (2020-2023-yy) mavzusidagi xalqaro amaliy loyiha, 2025/25/44-sonli «Akademik harakatchanlik» loyihasi doirasida «Mahalliy xomashyolar asosida temir yo'l rels prokladkalarini ishlab chiqarish va ularning ekspluatatsion ishonchliligini oshirish» mavzusidagi mahalliy loyiha hamda Toshkent davlat transport univeristetining tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi termoplast (YZPE) va reaktoplast (ED-20) bog'lovchilar asosida temir yo'l transporti sistemasi uchun rels mahkamlash

tizimlarining ekspluatatsion ishonchliligini ta'minlovchi geterokompozit materiallar tarkibini ishlab chiqishdan iborat

Tadqiqotning vazifalari:

temir yo‘l rels mahkamlash tizimlarining ekspluatatsion ishonchliligiga ta’sir etuvchi omillarni tizimli tahlil qilish asosida geterokompozitlarning bog‘lovchi komponent turini maqsadli tanlash;

termoplast (YZPE) matritsa asosida rels osti prokladkalari uchun mahalliy mineral va organik to‘ldiruvchilar, tolali mustahkamlovchilar, elastiklashtiruvchi modifikatorlarni tanlash mezonlarini ilmiy asoslash, komponentlarning turi, miqdori va nisbatlarini hisobga olgan holda geterokompozit materiallar tarkiblarini shakllantirish;

YZPE asosidagi geterokompozit materiallarda ko‘p siklli siqilish sharoitida yuzaga keladigan mikrostrukturaviy o‘zgarishlar va qoldiq deformatsiya, deformatsion gisterezis, relaksatsiya hamda charchash jarayonlarining shakllanish mexanizmlarini o‘rganish va ularning yuklama parametrlariga bog‘liqlik qonuniyatlarini aniqlash;

reaktoplast (ED-20) matritsa asosida prujinali mahkamlagich va yon izolyatorlar uchun mahalliy mineral va organik to‘ldiruvchilar, tolali mustahkamlovchilar hamda funksional modifikatorlarni tanlash mezonlarini ilmiy asoslash;

ko‘p siklli siqilish sharoitidagi ED-20 asosidagi geterokompozit polimer matritsa-to‘ldiruvchi-mustahkamlovchi-modifikator fazalararo chegaralarida kuchlanishlarning taqsimlanishi, strukturaviy nuqsonlar va ichki kuchlanishlarning siklik chidamlilikka ta’siri qonuniyatlarini nazariy va eksperimental jihatdan aniqlash;

YZPE va ED-20 matritsalari asosida ishlab chiqilgan geterokompozit materiallarning fizik-mexanik, tribotexnik, termik, strukturaviy-morfologik, dielektrik, iqlimiy bardoshlilik, tebranish so‘ndirish xossalarini kompleks tadqiq etish hamda komponent tarkibi va strukturaviy shakllanishining ekspluatatsion xossalarga ta’sirini ifodalovchi “tarkib-struktura-xossa-siklik chidamlilik-ekspluatatsion ishonchlilik” o‘zaro bog‘liqlik qonuniyatlarini aniqlash;

mahalliy xomashyolar asosida ishlab chiqilgan YZPE va ED-20 geterokompozit materiallardan rels mahkamlash elementlarining tajriba namunalarini tayyorlash, ularni tajriba-sanoat sharoitida sinovdan o‘tkazish asosida ekspluatatsion ishonchliligini baholash hamda ishlab chiqarishga joriy etishning texnik-iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqot obyekti sifatida temir yo‘l rels mahkamlash tizimining rels osti prokladkasi, prujinali mahkamlagich izolyatori va yon izolyatori uchun mo‘ljallangan mahalliy xomashyolar asosidagi geterokompozit materiallar, ulardan tayyorlangan funksional elementlar hamda ularning metall qismlar bilan hosil qiladigan metallopolimer kontakt tizimlari qabul qilingan.

Tadqiqot predmeti geterokompozit materiallarning tarkibi, strukturaviy-morfologik holati va fazalararo ta’siri bilan ularning metallopolimer kontaktlarda siklik yuklama ta’sirida yuzaga keladigan kontakt bosimi, ishqalanish, elastik-

deformatsiya, qoldiq deformatsiya, relaksatsiya, yeyilish va charchashga chidamlilik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik qonuniyati.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishida nazariy tahlil, eksperimental tadqiqot, tajribalarni matematik-statistik rejalashtirish, regressiya tahlili va ko‘p mezonli optimallashtirish usullaridan foydalanildi. Geterokompozit materiallarning strukturaviy va fazaviy holati SEM, XRD va IQ-spektroskopiya, termik barqarorligi TGA, tribotexnik xossalari tribometrik sinovlar yordamida tadqiq etildi. Ularning qattiqligi, siqilishdagi deformatsiyasi, qoldiq deformatsiyasi, deformatsion gisterezisi, relaksatsiyasi, ko‘p siklli yuklanishga chidamliligi va dielektrik xossalari standart sinov usullari asosida baholandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

temir yo‘l rels mahkamlash tizimining funksional vazifalari turlicha bo‘lgan elementlari uchun materiallarni Fuzzy Topsis metodi asosida tanlash tamoyili ilmiy asoslangan;

YZPE asosidagi geterokompozit materiallarda SEBSning 3 % va EVAning 10% miqdorida birgalikda qo‘llanishi natijasida fazalararo moslik hamda elastik tiklanishning o‘zgarishi bilan siklik yuklanishlarda qoldiq deformatsiya yoki dinamik qattiqlikning o‘zgarishi o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlanib, materialning deformatsion barqarorligini ta’minlashda SEBSning kompatibilizatsiyalovchi va EVAning elastifikatsiyalovchi ta’siri ilmiy asoslangan;

geterokompozit materiallarda fazalararo adgeziyaning klassik «matritsa-tola» yondashuvi ko‘p komponentli tarkib va siklik yuklanish sharoitlarini hisobga olgan holda rivojlantirilib, yuk uzatilishi va strukturaviy barqarorlikning matritsa-tola hamda matritsa-dispers mineral zarracha chegaralarida shakllanuvchi interfaza zonalarining o‘zaro bog‘liq ta’siri bilan belgilanishi ilmiy asoslangan;

ED-20 asosidagi geterokompozit materiallarda shina pirolizi uglerodli to‘ldiruvchisining ultrabinafsha nurlarni yutish va ularning matritsaga kirib borishini cheklash ta’siri ilmiy asoslanib, buning natijasida epoksid matritsaning yorug‘lik va kislorod ta’sirida kimyoviy yemirilishi hamda sirt mikroshikastlanishlarining rivojlanishi sekinlashishi aniqlangan;

ED-20 epoksid bog‘lovchisi asosidagi geterokompozitlarda qotiruvchi, mahalliy mineral to‘ldiruvchi, tolali mustahkamlovchi va funksional modifikatorlarning o‘zaro ta’siri natijasida hosil bo‘ladigan fazalararo, to‘rsimonlanish darajasi, ichki kuchlanishlar va strukturaviy nuqsonlarning prujinali hamda yon izolyatorlarning zarbiy yuklamalarga ta’sir qonuniyatlari aniqlangan;

ilk bor rels-prokladka, prujinali mahkamlagich-izolyator va rels-yon izolyator metallopolimer kontaktlarida siklik yuklanish amplitudasi va chastotasi, kontakt bosimi, mikrosiljish va sirpanishdagi ishqalanish koeffitsiyenti, friksion qizish, deformatsion holat hamda yeyilish intensivligiga birgalikdagi ta’sir qonuniyatlari aniqlangan;

ilk bor mexanofaollashtirilgan mahalliy xomashyolar asosida geterokompozit materiallardan funksional vazifalari turlicha bo'lga temir yo'l transporti elementlarining ekspluatatsion ishonchliligini ta’minlovchi, yuqori tebranish so‘ndiruvchiva termik barqaror va siklik yuklanishlarda deformatsion barqarorligi

yuqori geterokompozit materiallarning tarkibi hamda olish texnologiyasi takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

mahalliy polimer va mineral xomashyolar, tolali mustahkamlovchilar hamda funksional modifikatorlar asosida temir yo‘l rels mahkamlash tizimining rels osti prokladkasi, prujinali mahkamlagich izolyatori va yon izolyatori uchun siklik yuklanishga chidamli yangi geterokompozit materiallar tarkiblari ishlab chiqilgan hamda ulardan funksional elementlar olish texnologiyasi takomillashtirilgan;

mahalliy mineral to‘ldiruvchilar va modifikatsiyalovchi qo‘shimchalarni polimer matritsaga maqsadli kiritish natijasida ishlab chiqilgan geterokompozit materiallarning siklik siqilish va deformatsion shikastlanishga chidamliligi 1,3-1,5 barobarga, elastik tiklanish ko‘rsatkichi 18-25 foizga oshirilgan hamda ko‘p siklli yuklanish sharoitida shakl va o‘lcham barqarorligi ta’minlangan;

geterokompozit materiallarning tarkibi va strukturaviy holatini optimallashtirish hisobiga metallopolimer kontaktlardagi ishqalanish koeffitsiyenti 20-30 foizga kamaytirilgan, yeyilishga chidamliligi bazaviy materialga nisbatan 1,5-2,0 barobarga oshirilgan hamda termik barqarorlik ko‘rsatkichlari 25-35 foizga yaxshilangan;

ishlab chiqilgan rels osti prokladkasi va izolyatorlarni rels mahkamlash tizimida qo‘llash natijasida ularning xizmat muddatini 1,5-2,0 barobarga oshirish, qoldiq deformatsiya va sirt yeyilishini 30-40 foizga kamaytirish, import qilinadigan polimer elementlarga bo‘lgan ehtiyojni 25-30 foizgacha qisqartirish hamda mahsulot tannarxini 15-20 foizga kamaytirish imkoniyati texnik-iqtisodiy jihatdan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi geterokompozit polimer materiallarning strukturasi, fizik-kimyoviy, mexanik, tribotexnik va texnologik xossalarini o‘rganishda standart sinov usullari hamda zamonaviy tahlil vositalaridan foydalanilganligi, tajriba natijalariga kompyuter dasturlari yordamida matematik-statistik ishlov berilib, komponentlarning miqdoriy nisbatlari optimallashtirilganligi, o‘lchash natijalarining noaniqligi baholanganligi hamda olingan natijalar mavjud ilmiy ma’lumotlar bilan qiyosiy tahlil qilinganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati termoplast (YZPE) va reaktoplast (ED-20) bog‘lovchilar asosidagi geterokompozit materiallarda komponentlar tarkibi, struktura shakllanishi va fazalararo o‘zaro ta’sirning metall-polimer kontaktlardagi tribomexanik jarayonlar hamda siklik chidamlilik bilan bog‘liqlik qonuniyatlari aniqlanganligi, ko‘p komponentli tizimlarda yuk uzatilishi va strukturaviy barqarorlikni izohlovchi fazalararo bog‘lanishlar rivojlantirilganligi hamda funksional vazifalari turlicha bo‘lgan rels mahkamlash elementlari uchun materiallar tarkibini maqsadli tanlashning ilmiy asoslari takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mahalliy xomashyolar asosida rels osti prokladkalari, prujinali mahkamlagich izolyatorlari va yon izolyatorlar uchun geterokompozit materiallar tarkiblari hamda ularni olish texnologiyasi

takomillashtirilganligi, to‘ldiruvchilarni mexanofaollashtirish va komponentlar nisbatlarini tanlash orqali elementlarning funksional vazifalariga muvofiq tebranishlarni so‘ndirish qobiliyati, termik barqarorligi va siklik yuklanishlarga chidamliligini boshqarish imkoniyati yaratilganligi bilan izohlanadi. Olingan natijalar rels mahkamlash elementlarining ekspluatatsion ishonchliligini oshirishga yo‘naltirilgan materiallarni ishlab chiqarish, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni mahalliylashtirish hamda ulardan foydalanishning texnik-iqtisodiy samaradorligini baholash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Temir yo‘l transportining metallopolimer tizimlaridagi tribomexanik jarayonlar qonuniyatlarini o‘rganish asosida siklik yuklanishga chidamli geterokompozit materiallar tarkiblarini ishlab chiqishning ilmiy asoslari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

mahalliy xomashyolar asosidagi geterokompozit materiallardan tayyorlangan temir yo‘l rels mahkamlash tizimlari uchun prokladkalar «OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI» AJ tassarufidagi «Sanoat temir yo‘l boshqarmasi»da amaliyotga joriy etilgan («OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI» AJ ning 2026-yil 30-iyuldagi 07-26/01-01180 son ma’lumotnomasi). Natijada prokladkalarning xizmat muddati an’anaviy materiallarga nisbatan 1,5-1,8 barobarga uzaytirish imkonini bergan;

termoreaktiv geterokompozit materiallarda tayyorlangan rels mahkamlash tizimida qo‘llaniladigan yon va purjinali izolyatorlar «TOSHKENT YO‘LOVCHI VAGONLARINI QURISH VA TA’MIRLASH ZAVODI» AJ da amaliyotga joriy etilgan «TOSHKENT YO‘LOVCHI VAGONLARINI QURISH VA TA’MIRLASH ZAVODI» AJ ning 2026-yil 29-sentabrdagi №1080 son ma’lumotnomasi). Natijada izolyatorlarning xizmat muddati an’anaviy materiallarga nisbatan 1,3-1,5 barobarga oshganligi hamda texnik xizmat ko‘rsatish, ta’mirlash va almashtirish xarajatlarini 20-25 % gacha kamaytirish imkonini bergan;

optimal tarkibli geterokompozit materiallardan ishlab chiqilgan izolyator va rels osti prokladkalarini «OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI» AJ tassarufidagi «Sanoat temir yo‘l boshqarmasi»da amaliyotga joriy etilgan («OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI» AJ ning 2026-yil 30-iyuldagi 07-26/01-01180 son ma’lumotnomasi). Natijada ishqalanish hamda siklik yuklanish ta’sirida yuzaga keladigan deformatsiya va yeyilish jarayonlarining salbiy ta’sirini kamaytirish, rels mahkamlash uzelining ekspluatatsion ishonchliligini 1,3-1,8 barobarga oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 17 ta, jumladan 11 ta xalqaro, bulardan 5 tasi Scopus bazasiga kirgan jurnallarda e’lon qilingan va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 29 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 1 ta patent, 2 ta DGU, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyasining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 16 ta maqola, jumladan, 9 tasi respublika va 7 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tuzilishi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 200 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan, obyekti hamda predmeti aniqlangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, nashr etilganligi hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«Temir yo‘l transporti tizimlari konstruksiyasi va detallari uchun yuqori ekspluatatsion xossali yangi materiallarni yaratishning zamonaviy tendensiyalari»** deb nomlangan birinchi bobida temir yo‘l transporti tizimlari konstruksiyalari va detallarida qo‘llaniladigan metallopolimer tribojuftliklarining konstruktiv tuzilishi hamda ularning ekspluatatsion ishlash sharoitlari tahlil qilingan. Temir yo‘l transporti konstruksiyalari va detallariga qo‘yiladigan funksional, mexanik, tribologik va ekspluatatsion talablar ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganilib, geterokompozit materiallardan foydalanishning zamonaviy tendensiyalari va istiqbolli yo‘nalishlari ko‘rib chiqilgan. Siklik yuklanishlar sharoitida ishlovchi geterokompozit materiallarda mahalliy xomashyo va ikkilamchi resurslardan foydalanish imkoniyatlari baholanib, metall-polimer kontaktlarda yuzaga keladigan ishqalanish, yeyilish, deformatsiya va siklik shikastlanish jarayonlarini hisobga olgan holda temir yo‘l transporti konstruksiyalari va detallarining ekspluatatsion ishonchliligini oshirishning nazariy asoslari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning **«Siklik yuklanish sharoitida ishlovchi temir yo‘l tizimlari detallari va konstruksiyalari uchun geterokompozit materiallar tarkiblarini tanlash va tadqiqot metodlarini asoslash»** deb nomlangan ikkinchi bobida takroriy yuklanishlar hamda metallopolimer tribojuftliklarida ishlovchi temir yo‘l transporti detallari uchun geterokompozit materiallarning boshlang‘ich komponentlari Fuzzy TOPSIS usuli asosida ko‘p mezonli baholash orqali tanlangan.

Bunda har bir alternativ tarkibning musbat ideal yechimga D_i^+ va manfiy ideal yechimga D_i^- masofalari aniqlanib, ularning optimal yechimga yaqinlik koeffitsiyenti quyidagi ifoda orqali baholangan:

$$CC_i = \frac{D_i^-}{D_i^+ + D_i^-} \quad (1)$$

CC_iqiymati 1 ga yaqinlashgan sari alternativ tarkib optimal yechimga yaqin hisoblanadi.

Prujinali va yon izolyatorlarda elektr izolyatsion xossalar detalning funksional yaroqliligini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri ekanligi hisobga olinib,

klassik Fuzzy TOPSIS yaqinlik koeffitsiyenti izolyatsion xossaning ustuvorligini aks ettiruvchi koeffitsiyent bilan takomillashtirilgan:

$$CC_{i,iz} = CC_i \cdot K_{iz,i}^{\lambda} \quad (2)$$

yoki

$$CC_{i,iz} = \frac{D_i^-}{D_i^+ + D_i^-} \cdot K_{iz,i}^{\lambda} \quad (3)$$

bu yerda $CC_{i,iz}$- izolyatsion xossa hisobga olingan yakuniy yaqinlik koeffitsienti; $K_{iz,i}$- 0-1 oralig‘ida normallashtirilgan izolyatsion ko‘rsatkich; λ- izolyatsion xossaning ahamiyatini belgilovchi koeffitsiyent.

Taklif etilgan yondashuvda mexanik va tribologik ko‘rsatkichlari yuqori, biroq elektr izolyatsion xossalari talab darajasiga javob bermaydigan tarkiblarning integral bahosi pasaytiriladi. Shu orqali rels osti prokladkalari, prujinali va yon izolyatorlar uchun ularning funksional vazifasiga mos ravishda differensial ko‘p mezonli tanlash imkoniyati yaratilgan. Rels osti prokladkalari uchun izolyatsion mezonning ta’siri nisbatan past, prujinali va yon izolyatorlarda esa dielektrik barqarorlikning funksional ahamiyati yuqori bo‘lganligi sababli λ koeffitsiyenti kattaroq qiymatda qabul qilinadi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, rels osti prokladkalari uchun termoplastik bog‘lovchi sifatida yuqori zichlikli polietilen (YZPE), elastik-deformatsion xususiyatlarni yaxshilash uchun etilen-vinilatsetat (EVA) va qayta ishlangan rezina, polimer fazalari hamda to‘ldiruvchilar orasidagi moslikni oshirish uchun Stirol-etilen/butilen-stirol (SEBS) tanlangan (1-jadval).

1-jadval.

Tadqiqot obyektlari uchun tanlangan geterokompozit material komponentlari.

№	Komponent nomi	ISO, ГОСТ va TSH	Vazifasi
1	Yuqori zichlikli polietilen (YZPE)	TS 17642168-04:2013	Termoplastik bog‘lovchi
2	Etilen-vinilatsetat (EVA)	TU 2211-211-00203335-2013	Modifikator
3	Stirol-etilen/butilen-stirol (SEBS)	ISO 18064:2022	Kompatibilizator
4	Qayta ishlangan rezina	GOST R 54095-2023	Elastomer komponent
5	Texnik uglerod (saja)	GOST 7885-86	Dispers to‘ldiruvchi
6	E-turdagi shisha tolasi	GOST 32650-2014	Tolali to‘ldiruvchi
7	Epoksid-dian smolasi (ED-20)	GOST 10587-84	Termoreaktiv bog‘lovchi
8	Metil-5-norbornen-2,3-dikarbon angidrid	-	Qotiruvchi
9	Pyridine-4-carboxamide	-	Modifikator
10	AKC-30	O‘z DSt 1056:2004	Dispers to‘ldiruvchi

Tribotexnik, deformatsion va mustahkamlik xossalarini yaxshilash maqsadida qayta texnika uglerod (saja), shisha tolasi va kaolindan funksional to‘ldiruvchilar sifatida foydalanish ilmiy jihatdan asoslandi. Prujinali va yon izolyatorlar uchun termoreaktiv bog‘lovchi sifatida ED-20 epoksid smolasi, qotiruvchi sifatida metil-5-norbornen-2,3-dikarbon angidrid, modifikatsiyalovchi komponent sifatida pyridine-4-carboxamide, mustahkamlovchi komponent sifatida shisha tolasi hamda dispers mineral to‘ldiruvchilar sifatida AKC-30 markali kaolin tanlanildi.

Geterokompozit materiallarning strukturaviy-morfologik, fizik-mexanik, termik, dielektrik va tribotexnik xossalarini baholash uchun zamonaviy eksperimental usullar tanlangan. Metallopolimer tribojuftliklarida ishqalanish, yeyilish va kontakt jarayonlari, shuningdek takroriy yuklanishlarda deformatsion-dinamik xususiyatlar, qoldiq deformatsiya, energiya dissipatsiyasi va siklik barqarorlikni aniqlash metodikalari asoslangan.


Dissertatsiyaning **«Geterogen tizimlarda strukturalararo o‘zaro ta’sir mexanizmlari va ularning siklik yuklanishlarda ishlovchi temir yo‘l transporti detallarining ekspluatatsion ishonchliligini ta’minlovchi geterokompozit materiallar xossalariga ta’siri»** deb nomlangan uchinchi bobida metallopolimer tribotizimlarda ishlovchi geterokompozit materiallarning strukturaviy shakllanishi va friksion o‘zaro ta’sir mexanizmlari nazariy jihatdan asoslangan. Fazalararo adgeziyaning klassik nazariyasiga asoslangan Dupre tenglamasi geterokompozitlarning ko‘p fazali tuzilishini hisobga olgan holda takomillashtirilib, siklik yuklanishning faqat matritsa-tola interfeysida emas, balki matritsa-tola va matritsa-dispers to‘ldiruvchi fazalararo chegaralari orqali birgalikda taqsimlanish mexanizmi ilmiy asoslangan.

Geterokompozitlarda ikki fazani ajratuvchi geometrik sirt fazalararo chegara (interfeys), uning atrofida tarkibi va xossalari asosiy fazalardan farqlanuvchi hajmiy qatlam esa interfaza sifatida qaralgan. Ko‘p siklli siqilish ta’sirida mikrostrukturaviy degradatsiya elastik deformatsiya, fazalararo sirpanish, qoldiq deformatsiyaning to‘planishi hamda mikrobo‘shliq va mikroyoriqlarning rivojlanishi bilan kechishi aniqlangan.



1-rasm. Geterokompozit material mikrostrukturasining ko‘p siklli siqilish ta’sirida o‘zgarishi.

SEM tahlili sikllar sonining ortishi bilan geterokompozit mikrostrukturasida degradatsion jarayonlarning bosqichma-bosqich rivojlanishini ko‘rsatgan. Dastlab lokal mikrodefektlar va plastik deformatsiyalar kuzatilgan bo‘lsa, keyingi bosqichlarda qoldiq deformatsiyaning to‘planishi, fazalararo sirpanish, mikrobo‘shliq va mikroyoriqlarning rivojlanishi natijasida matritsa-to‘ldiruvchi interfeyslarida adgezion bog‘lanishlarning susayishi aniqlangan. Mazkur mikrostrukturaviy o‘zgarishlar siklik yuklamaning kompozit tarkibiy qismlari o‘rtasida uzatilishi va qayta taqsimlanish mexanizmini nazariy tavsiflash zaruratini asoslagan. Shu asosda tashqi yuklamaning polimer matritsadan tolali va dispers to‘ldiruvchilarga fazalararo interfeyslar orqali uzatilishining strukturaviy sxemasi ishlab chiqilgan



2-rasm. Geterokompozit material mikrostrukturasida siklik yuklanishning matritsa-tola va matritsa-dispers to‘ldiruvchi interfeyslari orqali taqsimlanish sxemasi.

SEM tasvirlari asosida tashqi siqilish yuklanishining polimer matritsadan tolali va dispers mineral to‘ldiruvchilarga uzatilishi, matritsa-tola interfeysida siljish kuchlanishlari hamda matritsa-dispers zarracha chegaralarida lokal kuchlanishlarning shakllanishi ko‘rsatilgan.

Dupre nazariyasiga muvofiq, matritsa va to‘ldiruvchi orasidagi fazalararo adgeziya ularning sirt energiyalari hamda fazalararo energiya bilan belgilanadi. Adgeziya ishining ortishi matritsaning to‘ldiruvchi yuzasini yaxshiroq ho‘llashi, fazalararo bog‘lanishning mustahkamlanishi va tashqi yuklamaning matritsadan tolali hamda dispers to‘ldiruvchilarga samarali uzatilishini ta’minlaydi.

Mazkur strukturaviy holatni matematik ifodalash uchun adgeziyaning klassik Dupre nazariyasiga asoslangan modeldan foydalanildi:

$$W_a = \frac{\sigma_f d_f \delta_i}{2 l_c} \qquad (4)$$

d_f- tola diametri, W_a -fazalararo adgeziya ishi, σ_f- tolaning cho‘zilishdagi mustahkamligi, δ_i-interfeysning samarali ajralish masofasi, l_c- tolaning kritik uzunligi,

Klassik modelda yuk uzatilishi asosan matritsa-tola interfeysi bilan izohlanadi. Biroq ko‘p komponentli geterokompozit mikrostrukturada dispers mineral zarrachalar ham yukni qabul qilish va qayta taqsimlashda faol ishtirok etadi. Shu sababli Dyupre modeli tolali va dispers to‘ldiruvchilarning geometrik hamda interfeys parametrlarini birgalikda hisobga oluvchi ko‘rinishda takomillashtirildi:

$$W_a = \frac{\sigma_f d_f \delta_i}{2 l_c}\left[1 + \frac{3}{2}\sum_{j=1}^{n} \eta_{p,j} \frac{\varphi_{p,j}}{\varphi_f} \frac{d_f}{d_{p,j}}\right] \qquad (5)$$

j- Dispers to‘ldiruvchining tartib raqami, n-Dispers to‘ldiruvchilarning umumiy soni, $\eta_{p,j}$- j-to‘ldiruvchining matritsa bilan interfeys samaradorligi koeffitsiyenti, $\varphi_{p,j}$- j-dispers to‘ldiruvchining hajmiy ulushi, φ_f-Tolali to‘ldiruvchining hajmiy ulushi, $d_{(p,j)}$-j-dispers to‘ldiruvchi zarrachalarining o‘rtacha diametri,

Taklif etilgan model siklik yuklanishning faqat matritsa-tola interfeysida emas, balki matritsa-tola va matritsa-dispers to‘ldiruvchi chegaralari orqali birgalikda taqsimlanishini, shuningdek dispers zarrachalarning hajmiy ulushi, o‘lchami va

interfeys samaradorligining fazalararo adgeziya ishiga ta’sirini miqdoriy baholash imkonini beradi.

Fazalararo yuk uzatilishi va adgezion o‘zaro ta’sirning aniqlangan qonuniyatlari asosida rels osti prokladkasi uchun geterokompozit material tarkibini shakllantirishda polimer matritsa, elastomer komponentlar, tolali hamda dispers to‘ldiruvchilar nisbatini kompleks ravishda optimallashtirish zarurati asoslandi. Shu maqsadda siklik va kontakt yuklanishlar sharoitida ishlashga mo‘ljallangan, komponentlar tarkibi va miqdoriy nisbatlari bilan farqlanuvchi P-1-P-6 geterokompozit namunalari ishlab chiqildi (2-jadval).


2-jadval.

Rels osti prokladkasi uchun geterokompozit namunalarning tarkibi

Namuna	Polimer matritsa %	EVA (%)	Texnik uglerod (saja) (%)	SEBS (%)	Qayta ishlangan shina (%)	Shisha tola %	Kaolin %
*P-1	HDPE (56%)	15	3	3	10	8	5
P-2	PP (58%)	13	3	3	10	8	5
P-3	HDPE (61%)	10	3	3	10	8	5
P-4	PVC (59%)	10	3	3	12	8	5
P-5	PP (51%) + UHMWPE (5%)	15	3	3	10	8	5
P-6	PP (56%)	10	3	3	15	8	5

*Belgilanishdagi **“P” harfi “prokladka”** so‘zining shartli belgisi sifatida qabul qilingan

Siklik yuklanish sharoitida ishlovchi temir yo‘l rels mahkamlash tizimining rels osti prokladkalari uchun polimer matritsa, elastomer fazalar va dispers to‘ldiruvchilar o‘rtasidagi fazalararo adgezion bog‘lanishni yaxshilash maqsadida SEBS modifikatorining ta’siri tadqiq etildi. SEBS miqdorining mikrostrukturaviy bir jinslilik, fazalararo moslik va mexanik xossalarga ta’siri SEM tahlili hamda cho‘zilishdagi mustahkamlik ko‘rsatkichlari asosida baholandi.




a) **b)**

a - SEBS qo‘shilganda shakllangan zich va bir jinsli mikrostruktura; b - SEBS qo‘shilmaganda kuzatilgan fazaviy ajralish, aglomeratsiya va mikrobo‘shliqlar.

3-rasm. YZPE-EVA tizimining SEM tasvirlari.

SEM tahlili SEBS kiritilishi natijasida polimer fazalar va to‘ldiruvchilar o‘rtasidagi interfeyslarning yaxlitligi ortib, mikrostrukturaning zich va bir jinsli shakllanganligini ko‘rsatdi. SEBS qo‘shilmagan tarkibda esa fazaviy ajralish, lokal aglomeratsiya va mikrobo‘shliqlarning mavjudligi fazalararo adgezion bog‘lanishning sustligini ko‘rsatgan. Bu holat SEBSning kompatibilizator sifatida fazalararo moslikni

yaxshilashi va kuchlanishlarning kompozit hajmi bo‘ylab samaraliroq uzatilishiga sharoit yaratishini ko‘rsatadi. SEM tahlilida aniqlangan ushbu strukturaviy qonuniyatlar mexanik sinovlar natijalari bilan ham tasdiqlangan.




4-rasm. SEBS miqdorining cho‘zilishdagi mustahkamlikka ta’siri.

SEM tahlilida aniqlangan fazalararo moslikning yaxshilanishi mexanik sinovlar natijalari bilan ham tasdiqlangan. SEBS miqdori 0% dan 3% gacha oshirilganda cho‘zilishdagi mustahkamlik 43,2 MPa dan 47,5 MPa gacha, ya’ni qariyb 10% ga ortgan. Ushbu o‘sish SEBSning kompatibilizator sifatida polimer matritsa, elastomer faza va to‘ldiruvchilar orasidagi adgezion bog‘lanishni mustahkamlashi hamda tashqi yuklamaning kompozit struktura bo‘ylab samaraliroq uzatilishi bilan izohlanadi. SEBS miqdorining 3% dan ortishi esa mustahkamlikning pasayishiga olib kelganligi sababli, 3% SEBS miqdori fazalararo moslik va mexanik mustahkamlikni ta’minlovchi maqbul miqdor sifatida qabul qilingan.

Dissertatsiyaning **«Mahalliy xomashyolar asosida olingan geterokompozit materiallarning metallopolimer kontaktlaridagi tribomexanik xossalarini eksperimental tadqiq etish»** deb nomlangan to‘rtinchi bobida mahalliy va ikkilamchi xomashyo komponentlari asosida shakllantirilgan geterokompozit materiallarning strukturaviy-morfologik, fizik-mexanik, termik, dielektrik va tribologik xossalari kompleks eksperimental tadqiq etilgan. Komponentlar tarkibi va ularning miqdoriy nisbatlarining mikrostruktura, fazalararo o‘zaro ta’sir hamda funksional-ekspluatatsion ko‘rsatkichlarga ta’sir qonuniyatlari aniqlangan. Olingan natijalar asosida rels osti prokladkasi, prujinali va yon izolyatorlar uchun maqbul geterokompozit tarkiblarni tanlashning eksperimental mezonlari va ilmiy asoslari ishlab chiqilgan.


O‘tkazilgan qiyosiy eksperimental tadqiqotlar natijasida P-1-P-6 tarkiblar orasida P-3 namunasi fizik-mexanik va tribotexnik ko‘rsatkichlarning eng maqbul majmuasini namoyon etgani aniqlandi. Mazkur tarkib yuqori mustahkamlik, deformatsion barqarorlik, elastik tiklanish va strukturaviy bir jinslilikning o‘zaro uyg‘unligi bilan ajralib, rels osti prokladkasi uchun keyingi chuqurlashtirilgan tribologik, termik va siklik sinovlarni o‘tkazish uchun maqbul tarkib sifatida tanlab olindi.

SEM-EDS tahlili P-3 namunasida zich, nisbatan bir jinsli va kam nuqsonli mikrostruktura shakllanganini, dispers to‘ldiruvchilarning polimer matritsa bo‘ylab yetarlicha bir tekis taqsimlanganini hamda yirik g‘ovak va fazaviy ajralishlarning keskin namoyon bo‘lmaganini ko‘rsatdi. EDS spektrida Al, Si va Mg elementlarining qayd etilishi mineral to‘ldiruvchilarning kompozit tarkibida mavjudligini tasdiqladi (5-rasm).



5-rasm. P-3 geterokompozit rels osti prokladka namunasining mikrostrukturasi va element tarkibining SEM-EDS tahlili.

Kuzatilgan morfologik xususiyatlar P-3 tarkibida matritsa va dispers fazalar o‘rtasidagi kontaktning nisbatan samarali shakllanganligini ko‘rsatdi. Fazalararo o‘zaro ta’sirning kimyoviy tabiatini aniqlashtirish maqsadida keyingi bosqichda IQ-spektroskopik tadqiqotlar o‘tkazildi.




6-rasm. P-3 geterokompozit rels osti prokladka namunasining IQ-spektroskopik tahlili.

IQ-spektroskopik tahlil P-3 geterokompozitida polimer matritsa va funksional komponentlarga xos yutilish polosalarining saqlanganini, ayrim funksional guruhlar sohasida esa intensivlik va spektral shaklning o‘zgarishini ko‘rsatdi. 2916-2961 sm^{-1} diapazondagi alifatik -CH_2/-CH_3 guruhlari, 1737 sm^{-1} atrofidagi karbonil guruhlari hamda 1000-1100 sm^{-1} sohadagi silikatli komponentlarga xos yutilishlar kompozit tarkibiy qismlarining o‘zaro ta’sirini tavsiflaydi. Mazkur spektral o‘zgarishlar matritsa, elastomer faza va mineral to‘ldiruvchilar orasidagi molekulalararo hamda fazalararo o‘zaro ta’sirlarning kuchayganini bilvosita ko‘rsatadi. Shu bilan birga, yangi keskin yutilish polosalarining hosil bo‘lmaganligi fazalararo bog‘lanish asosan fizik va molekulalararo o‘zaro ta’sirlar hisobiga shakllanganini ko‘rsatadi.

SEM va IQ-spektroskopik tahlillarda aniqlangan fazalararo kontaktning yaxshilanishi hamda komponentlar o‘rtasidagi molekulalararo o‘zaro ta’sirlarning strukturaviy holatga ta’sirini aniqlash maqsadida P-3 namunasining rentgen-diffraksion tahlili o‘tkazildi. XRD natijalari polimer matritsaning kristallik xususiyatlari, mineral to‘ldiruvchilarning fazaviy holati va kompozit strukturasidagi tartiblanish darajasini baholash imkonini berdi.

XRD tahlili natijalariga ko‘ra, P-3 namunaning difraktogrammasida $2\theta \approx$ 9-10°, 14-18°, 21-23°, 29-30° va 43-45° sohalarda xarakterli difraksion maksimumlar qayd etilgan.




7-rasm. P-1, P-2 va P-3 geterokompozit rels osti prokladka materiallarining XRD difraktogrammalari.

Asosiy kristall maksimumlarning aniq namoyon bo‘lishi bilan birga diffuz amorf fonning saqlanishi polimer matritsada kristall va amorf fazalarning o‘zaro muvozanatlangan strukturasi shakllanganligini ko‘rsatadi. Bunday strukturaviy holatda kristall sohalar materialning qattiqligi, shakl barqarorligi va qoldiq deformatsiyaga chidamliligini ta’minlasa, amorf hamda elastomerik sohalar elastik tiklanish va tebranish energiyasini dissipatsiyalash xususiyatlarini saqlab qolishga xizmat qiladi.

Shu asosda P-3 namuna rels osti prokladkasi uchun zarur bo‘lgan strukturaviy barqarorlik va deformatsion moslashuvchanlikning maqbul uyg‘unligiga ega tarkib sifatida baholandi. Ekspluatatsiya jarayonida material mexanik va siklik yuklanishlar bilan bir qatorda harorat ta’siriga ham uchrashi sababli, uning termik barqarorligi, parchalanish bosqichlari va yuqori haroratdagi strukturaviy yaxlitligini baholash maqsadida keyingi bosqichda TGA/DSC tahlili o‘tkazildi.

P-3 va an’anaviy rels osti prokladka materiallarining TGA/DSC qiyosiy tahlili P-3 tarkibining termik barqarorligi yuqoriroq ekanligini ko‘rsatdi (8-rasm). P-3 namunada 5% va 10% massa yo‘qotilishi mos ravishda 387 va 400 °C da, 50% massa yo‘qotilishi esa 467 °C da kuzatildi. 600 °C da qoldiq massaning 12,8% ni tashkil etishi kompozit tarkibidagi termik barqaror mineral va tolali komponentlarning mavjudligi bilan bog‘liq. An’anaviy prokladka materialida esa yuqori haroratlarda qoldiq massa deyarli saqlanmagan.

DSC egri chiziqlarida kuzatilgan termik effektlar P-3 tarkibida parchalanish jarayonlarining bosqichma-bosqich kechishini ko‘rsatadi. Bu holat polimer matritsa, elastomer faza va mineral to‘ldiruvchilar o‘rtasidagi strukturaviy o‘zaro ta’sir natijasida issiqlik ta’siriga chidamliroq geterogen tuzilma shakllanganini ko‘rsatadi. Olingan natijalar P-3 namunaning termomexanik yuklanishlar sharoitida strukturaviy yaxlitlikni saqlash qobiliyati an’anaviy materialga nisbatan yuqoriroq ekanligini tasdiqlaydi.



8-rasm. P-3 va an’anaviy rels osti prokladka materiallarining termogravimetrik (TGA) qiyosiy tahlili

